




Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023- YIL
yanvar- iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'ortalash va har xil turdag'i vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
76,8 %**

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
2 764,1
ming so'm

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
9 824,6
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
65,1 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
111,7 %**

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
109,2 %

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko’rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o’z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma’lumotlarga ko’ra, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ko’rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 824,6 mlrd. so’mga** yetdi. Uning nominal hajmi **1 834,1 mlrd. so’mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o’tgan yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’ati **111,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko’rsatkichlari



Dastlabki ma’lumotlar


2023- yil yanvar-iyul

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	9 824,6	111,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	520,8	125,4
Moliyaviy xizmatlar	1 705,5	117,2
Transport xizmatlari	1 789,3	110,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 599,0	107,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	272,4	104,9
Savdo xizmatlari	3 051,3	108,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	254,1	103,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	527,7	153,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	218,6	102,7
Ijara xizmatlari	155,8	92,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	274,3	103,1
Shaxsiy xizmatlar	629,5	103,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	104,2	100,9
Boshqa xizmatlar	321,1	107,0

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Taqqoslash uchun: 2023- yilning yanvar-iyul oylarida Ta'llim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **121,4 %**. Nisbatan past Ijara xizmatlarida kuzatilgan – **91,1 %**.




Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

2023-yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **1 789,3** mlrd. so‘mga teng bo‘lib, ularning o‘sishi 2022- yilning shu davriga nisbatan **110,4 %** ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagи xizmatlarning ulushi **18,2 %** ni tashkil etdi.

Turlari bo‘yicha transport xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyul oylarida)



2023- yilning yanvar-iyul oylariida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **88,7 %** dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-iyul oylariida ko‘rsatilgan xizmatlarning **90,9 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-iyul



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,0 %** ni tashkil etib, bu **3 051,3 mldr. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **2 535,3 mldr. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **31,7 %** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2023-y.
yanvar-iyul **3 051,3**
 mldr. so'm



2 535,3
mldr. so'm



Hajmning
o'sishi

108,2 %



116,3 %
2022-y.
yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtadan uch qismini, aniqrog'i, **76,2 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,3 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar (**5,5 %**) da kuzatildi.

**Savdo xizmatlarining tarkibi
(2023- yilning yanvar-iyul oylarida)**



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo ulushi **77,5 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar
(2023- yil yanvar-iyul oylarida)**

2023- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 705,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1 334,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **17,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **16,7 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **371,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **117,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **122,0 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **8,3 %** oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,3 %** ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyul oylarida)**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



**Sug'urta bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **90,7 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,8 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,5 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y.
yanvar-iyul

**409,4
mlrd. so‘m**

124,0 %

5,1 %

2023- y.
yanvar-iyul

**520,8
mlrd. so‘m**

125,4 %

5,3 %




111,4 mlrd. so‘mga

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,1 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini rivojlantirish** – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

153,4 %

**2022- yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari**

113,8%

2022- y. yanvar-iyul

**527,7
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi**

**358,5
mlrd. so'm**

2023- y. yanvar-iyul

5,4 %

**Umumiy
hajmdagi ulushi**

4,5%

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **527,7 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,4 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **153,4 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2023- y.
yanvar-iyul**




218,6 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

**2022- y.
yanvar-iyul**




185,1 mlrd. so'm

2,2 %




**Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi**




2,3 %

102,7 %



O'sish sur'ati



115,1 %

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**2022- y.
yanvar-iyul**



**2023- y.
yanvar-iyul**



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul


2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **45,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2022- y.
yanvar-
iyul

2023- y.
yanvar-iyul



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2023- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,3** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **84,7** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Tuman(shahar)lar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
Namangan viloyati	9 824,6	111,7	115,2
Namangan sh.	3 922,4	113,0	121,5
tumanlar:			
Mingbuloq	370,7	110,8	111,1
Kosonsoy	500,4	109,5	113,5
Namangan t.	521,7	109,9	111,7
Norin	433,7	111,4	109,2
Pop	622,7	114,0	106,4
To'raqo'rg'on	637,1	112,8	111,0
Uychi	627,5	110,3	111,4
Uchqo'rg'on	476,1	111,1	110,5
Chortoq	531,0	111,8	111,8
Chust	684,7	107,3	115,7
Yangiqo'rg'on	496,6	111,7	110,3


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Tuman(shahar)lar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da



2023- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **39,9 %** (2022-yilning yanvar-iyul oylarida – **39,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,8 %** (2022- yilning yanvar-iyul oylarida – **3,8 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning o'sishi

**109,2 %**

O'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 260,8** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022 - yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 945,2** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,7 %** da qayd etilgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2023- yilning 1- avgust holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining kaiyulishi

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-iyul



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2023- yil yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,1** % ni tashkil etdi

2023- yilning 1 avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1 iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **76,8** % ga to'g'ri keldi.



Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00

Dastlabki ma'lumotlar